

MUSTAQIL TA’LIM

Rayimboyeva Kumushoy O`ktamboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Inomova Zebo Umidjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Yo`ldasheva Maftuna Jura qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Mustaqil ta’lim – muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishni, o‘zlashtirish darajasini amalgalashiriladigan ta’lim shakllaridan bo‘lib, o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi. Talabalarga mustaqil ish(ta’lim)ni bajarish yuzasidan kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ta’lim turlari – rang-barang va turli elektron ko‘rinishlari – fan o‘qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi.

ABSTRACT

Independent learning is a form of learning which is defined in the curriculum of a particular subject, and the formation of knowledge, skills, and competencies which are acquired by the student, and it is also a form of learning that takes place outside the classroom on the basis of the teacher’s advice, recommendations, and preparation for the distribution of knowledge. This article provides information on how to organize independent learning, based on the materials which are available today.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, ko‘nikma, axborot manzillari, elektron adabiyotlar, ma’lumotlar banki, ratsional.

Keywords: Independent learning, skills, information addresses, electronic literature, data bank, rational.

Mustaqil ta’lim fanni o‘zlashtirishga, mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatiga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv materiallarini ishlab chiqish va ularni amalda tatbiq etish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqil ta’lim tizimi o‘quv materiallari talabalarning fanga tegishli faoliyat usuli bo‘yicha nazariy ma’lumotlar bilan bir qatorda yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi topshiriqlarni qamrab olishi kerak.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

1) yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- 2) kerakli ma'lumotlarni izlab topish, o'rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- 3) axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- 4) o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- 5) elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- 6) internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- 7) berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini belgilash;
- 8) ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- 9) topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- 10) o'quv adabiyotlaridan mustaqil holda ilmiy axborotlarni ola bilish;
- 11) amaliy mashg'ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq (mustaqil ish)larni bajarish va mustaqil ishlarni mas'ul o'qituvchi va guruh talabalari o'rtaida himoya qila bilish va h.

Tadqiqot maqsadi: turli manbalardan foydalangan holda o`quvchilarda mustaqil ta'lim tashkil etish yo'llarini aniqlash va tahlil qilish hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga ularning o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash , mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarish va bajargan mustaqil topshiriqni mas'ul o'qituvchi va guruhdoshlari oldida himoya qila bilish kabi bilim va malakalari kiradi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish tartibi va ilmiy rahbarning vazifalari
mustaqil ta'limning mavzulari beriladi;
ishni topshirish muddati va topshirish shakli haqida ma'lumot beriladi;
mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tavsiyalar shaklida beriladi;
mavzuga oid adabiyotlar tavsiya qilinadi;
mavzuning rejasini tuzishda talabaga yordam beriladi;
mustaqil ish va rejalarining bajarilishi yuzasidan doimiy nazoratlar o'tkazib turiladi va tavsiyalar berib boriladi;
ko'rsatilgan muddatda berilgan topshiriqlar ko'rildi;
topshiriq yuzasidan test yoki savol-javob o'tkaziladi;
amaliy xarakterdagи topshiriqlarning yechimi ko'rsatiladi va o'xshash misollar yordamida tekshiriladi;
mustaqil ish belgilab berilgan baholash mezonlari asosida baholanadi.

Mustaqil ishini tashkil etishda talabaning vazifalari
Talaba mustaqil ishni bajarish jarayonida quydagilarni bajarishi zarur:
–ishning mavzusini kafedraning talablaridan kelib chiqqan holda tanlash;
–ilmiy rahbarning tuzib bergen reja asosida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish;

–o‘rnatilgan tartib bo‘yicha mustaqil ishning hisobini o‘z vaqtida kafedraga taqdim etish.

Talabaning mustaqil ishini nazorat qilish kafedrada ishlab chiqilgan jadval va fanning texnologik xaritasi asosida olib boruvchi professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Talaba mustaqil ishning nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi.

Mustaqil ta’lim olishda o’quvchilar o’z ustida ishlashadi, o’z-o’zini rivojlantirish uchun harakat qilishadi. Bu harakatlari orqali o’quvchilarning bilim olish darajasi oshib boraveradi. Keyichalik olgan bilimlarini hayoti davomida ham qo’llay olishadigan darajaga yetishadi.

O’quvchilarning o’quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslikyoki umumkasbiy o’quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo’lishdamustaqlar ta’lim olish ko’nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o’ynaydi. Mustaqil ta’lim olish o’quvchilarda mustaqil fikrlashni, mustaqil ishlashni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipova J.O., G’ofurov A.T.-Biologiya ta’lim texnologiyalari. Metodik qo’llanma “O’qituvchi” T.:2002 yil.
2. Tolipova J.O., G’ofurov A.T.-Biologiya o’qitish metodikasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’qituvchilari uchun o’quv metodik qo’llanma.- T.: “Bilim” 2004-yil.
3. D.Ro’ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova-Interfaolmetodlar; mohiyati va qo’llanilishi (metodik qo’llanma)-Toshkent-2013 yil.
4. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O,,quv qo’llanma.-T.; 2013yil.
5. Yoldoshev J.G., Zamonaviy dars. Malaka oshirish; muammolar, izlanishlar, yechimlar. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOM.-T.; 2017yil.
6. Muslimova, A.F. O’z-o’zini takomillashtirishga va ijodiy o’zini namoyon qilishga intilishlarni rivojlantirish / A.F. Muslimova // O’rta maxsus kasb ta’limi. – 2010-yil
7. Skobeleva T.M. O’rta maxsus kasb-hunar ta’limi o’quv yurtlarida zamonaviy o’qitish texnologiyalari / T.M. Skobelev. - M .: "Yangi darslik" nashriyot uyi, 2010 yil ("Ta’limni rivojlantirish federal dasturi kutubxonasi" seriyasi).
8. Talabalarning mustaqil ishlarini boshqarish: uslub. nafaqa / general ostida. tahrirlangan I.P. Cho’pon, T.G. Argunova. - M .: "O’zR DPI" jurnali kutubxonasi, 2010-yil.
9. J.E.Usarov, L.G.Babxodjaeva, G.N.Sharipova, N.J.Eshnaev. Pedagogik kompetentlik./O’quv qo’llanma. – Chirchiq, “Farzay poligraf”. 2021.
10. <https://azkurs.org> Toshkent-f.
11. <https://mywordworld.ru>
12. [htt; https://mywordworld.ru](https://mywordworld.ru)
13. [https://azkurs.org uz](https://azkurs.org)